

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI DIREKTOR VA  
MUTAXASSISLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING  
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI PhD.12/30.12.2019.Ped 80.01 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI DIREKTOR VA  
MUTAXASSISLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING  
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

**QOSIMOVA SHAXNOZA NURIDDINOVNA**

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI DIREKTORLARINING  
UZLUKSIZ MALAKASINI OSHIRISHNI TA'MINLASH  
TEXNOLOGIYALARI**

**13.00.07 – Ta'limda menejment**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on pedagogical sciences**

**Qosimova Shaxnoza Nuriddinovna**

Ma'ktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarining uzluksiz malakasini oshirishni ta'minlash texnologiyalari.....3

**Касимова Шахноза Нуриддиновна**

Технологии обеспечения непрерывного повышения квалификации директоров дошкольных образовательных организаций.....25

**Kasimova Shahnoza Nuriddinovna**

Technologies for ensuring continuous professional development of directors of preschool educational organizations.....50

**Эълон қилинган ишлар рўйхати**

**Список опубликованных работ**

**List of published works.....55**

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI DIREKTOR VA  
MUTAXASSISLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING  
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI PhD.12/30.12.2019.Ped 80.01 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI DIREKTOR VA  
MUTAXASSISLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING  
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

**QOSIMOVA SHAXNOZA NURIDDINOVNA**

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI DIREKTORLARINING  
UZLUKSIZ MALAKASINI OSHIRISHNI TA'MINLASH  
TEXNOLOGIYALARI**

**13.00.07 – Ta'limda menejment**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2022.3.PHD/Ped1720 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (резюме)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.vocedu.uz](http://www.vocedu.uz)) hamda “ZiyonET” axborot-ta’lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) manzillariga joylashtirilgan.

<b>Ilmiy rahbar:</b>	<b>Eshpo‘latov Komil Abdusalomovich</b> iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
<b>Rasmiy opponentlar:</b>	<b>Djanpeisova Gauxar Erkinovna</b> pedagogika fanlari nomzodi, dotsent  <b>HurvaliyevaTarmiza Latipovna</b> pedagogika fanlari doktori, professor
<b>Yetakchi tashkilot:</b>	<b>Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti</b>

Dissertatsiya himoyasi Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutahassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.12/30.12.2019.Ped.80.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil «\_\_\_» soat \_\_\_dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (manzil: Toshkent shahri, Yusuf xos Hojib ko‘chasi, 64-uy. Tel: (99871) 150-01-27; faks: (99871) 150-01-27; E-xat: [mtm-malaka.oshirish@exat.uz](mailto:mtm-malaka.oshirish@exat.uz).)

Dissertatsiya bilan Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutahassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: Toshkent shahri, Yusuf xos Xojib ko‘chasi, 64-uy. Tel: (99871) 150-01-27; faks: (99871) 150-01-27; e-mail: [mtm-malaka.oshirish@exat.uz](mailto:mtm-malaka.oshirish@exat.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_kuni tarqatildi.

(2023 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_-raqamli reyestr bayonnomasi).

**N.X. Raxmankulova**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash raisi, p.f.d., professor

**Sh.E. Ne‘matov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash kotibi, p.f.n., dots

**F.R.Qodirova**  
Ilmiy darajalar beruvchi iliy  
kengash qoshidagi ilmiy seminar  
raisi, p.f.d., professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi annotasiyasi)**

**Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan tub islohotlar maktabgacha ta'lim sifatini oshirishda yangi ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyoj va talablarga moslashgan malaka oshirish jarayonini tizimli yo'lga qo'yish, tinglovchilarning kasbiy malakasini rivojlantirishning variativ shakllarini ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Kattalar ta'limi, jumladan, malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning kasbiy malakasini rivojlantirish masalalari bilan YUNESKO, YUNISEF, Yevropa Universitetlari Assotsiasiyasi, maktabgacha ta'lim sifatini ta'minlash Yevropa tarmog'i kabi tashkilotlar keng shug'ullanmoqda. Ayni shu rivojlangan davlatlar tajribasidan samarali foydalangan holda malaka oshirish tizimida tinglovchilarning kasbiy malakasini rivojlantirishning interfaol texnologiyalarini takomillashtirish, tinglovchilarda kreativ fikrlashni shakllantirish modellarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyoda andragogik ta'limni tashkil etishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlashtirish, malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning kasbiy malakasini rivojlantirishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, zamonaviy sharoitda kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun muhim hisoblangan kattalar ta'limida o'qitish mexanizmlarini takomillashtirish tobora ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 70-sessiyasida qabul qilingan "2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs)<sup>1</sup>"da uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida kompetensiyalarga asoslangan ta'lim modelini joriy etish, turli yoshdagi shaxslarning munosib ish o'rni uchun tegishli ko'nikma va malakalarini rivojlantirish, ularning ta'limga bo'lgan ehtiyojlarni qondirish masalalari dolzarb vazifa sifatida belgilandi.

Respublikamiz maktabgacha ta'lim tizimini isloh qilishda, shiddat bilan o'zgarayotgan davr talablariga tayangan holda boshqaruv xodimlarining ehtiyojlariga e'tibor qaratish va ularning yuqori malakali boshqaruvchi sifatida kasbiy kompetentligini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan maktabgacha ta'limni boshqarish tizimini takomillashtirish, xalqaro talablarga javob beradigan yagona ko'p darajali uzluksiz ta'lim tizimini yaratish va maktabgacha ta'lim tizimida xodimlarning malakasini oshirish va rivojlantirishga mutlaqo yangi yondashuvlarni joriy etish<sup>2</sup> talablari belgilab berilgan. Ushbu talablardan kelib chiqqan holda malaka oshirish tizimida tinglovchilarning kasbiy malakasini rivojlantirishning interfaol texnologiyalarini takomillashtirish, tinglovchilarda kreativ fikrlashni shakllantirish modellarini ishlab chiqish, uzluksiz tinglovchilarning kasbiy malakasini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini, malaka oshirish modellarini takomillashtirishni taqozo etadi. Yuqoridagi vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

---

<sup>1</sup> Open Working Group proposal for Sustainable Development Goals // <https://sustainabledevelopment.un.org/focussdgs.html>

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" qarori // Lex.uz

Ushbu dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrda O‘RQ-595-son “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni, “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” farmoni, 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2017-yil 9-sentabrdagi PQ-3261-son “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrda 802-son “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori, 2017-yil 28-dekabrda 1026-son “Pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** O‘tkazilgan ilmiy izlanishlar va tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, respublikamizda kattalar ta’limini rivojlantirish bo‘yicha F.R.Qodirova, Q.T.Olimov, N.F.Abdunazarova, R.H.Djurayev, A.I.Ikramov, Sh.K.Mardonov, Sh.N.Mahmudova, S.Maxmudov, X.N.Raxmonqulova, H.F.Rashidov, E.A.Seythalilov, S.T.Turg‘unov, A.R.Xodjabayev, A.A.Shayusupova, J.G.Yo‘ldoshev, Sh.E.Qurbanov; kasbiy kompetentlikni rivojlantirish va diagnostika qilish bo‘yicha U.Begimqulov, U.Inoyatov, Y.Ismadiyarov, M.T.Mirsoliyeva, A.Musurmonova, N.A.Muslimov, M.B.Urazova, Sh.S.Sharipov, M.A.Yuldashev va boshqa olimlar tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan.

Kattalar ta’limini tashkil etish, malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning kasbiy malakasini rivojlantirish masalalari MDH olimlaridan: R.Abramov, L.Alekseyeva, Y.E.Bogdanov, V.Zazigin, R.Kvesko, V.Komarovskiy, E.Kondratev, Y.Masalova, A.Petrovskiy, M.Yaroshevskiy kabilar tomonidan o‘rganilgan.

Masofaviy o‘qitish, pedagog kadrlarning malakasini oshirish, tinglovchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalalari respublikada A.Abdugodirov, U.Begimqulov, R.Djurayev, R.Isyanov, Sh.Mardonov, M.B.Matnazarova, N.Muslimov, D.Sayfurov, N.Taylaqov va A.Aminov, S.Turg‘unov, N.Yuldasheva, J.Yo‘ldoshev, M.Yaxyayev; MDH davlatlarida A.Andreyev, N.Gavrilov, A.Koryakina, O.Osipova, V.Paramzina, E.Polat, A.Shabanov, K.Sharifzyanova; xorijiy davlatlarda A.Bates, Z.Berge, J.Daniel, M.Dougiamas, B.Holmberg va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan.

V.Greaney, M.Johnson, T.Kellaghan, C.McKee, D.Nusche, W.Ritchie, P.Santiago, T.Radinger, C.Shewbridge kabi xorijlik olimlar malaka oshirish kursi tinglovchilarining tadqiqotchilik layoqatini rivojlantirish yo'llari hamda ta'lim sifatini milliy baholash asosida malaka oshirishning zamonaviy shakllarini tadqiq etish borasida izlanishlar olib borishgan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutining ilmiy tadqiqotlar rejasining "Maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning konseptual-metodologik masalalari" mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarining malaka oshirish jarayoni uzluksizligini ta'minlash texnologiyalarini takomillashtirishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorining malaka oshirish jarayonining joriy holatini ilmiy pedagogik tahlil qilish, me'yoriy-huquqiy hujjatlar va xorijiy tajribalar asosida direktorning kasbiy professiogrammasini ishlab chiqish;

olib borilgan ilmiy tahlillarga asoslanib, maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlari malakasini oshirishning tashkiliy - didaktik modelini takomillashtirish;

maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorining ehtiyojga asoslangan uzluksiz malakasini oshirish mazmunini shakllantirish, ta'lim natijalarini baholash mezonlarini ishlab chiqish va matematik-statistik tahlil qilish;

maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorining ehtiyojga asoslangan malakasini oshirish jarayonida ta'lim sifatini maqsadli boshqarish yuzasidan ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti:** maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining qisqa muddatli kurslarda malakasini oshirish jarayoni, 327 nafar tinglovchi ishtirok etdi.

**Tadqiqotning predmeti** maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining malakasini oshirish mazmuni, shakli, metod va vositalarini tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda nazariy (tahliliy, qiyosiy va taqqoslash), diagnostik (so'rovnomalar, test, kuzatish, loyihalashtirilgan metodikalar), prognostik (ekspert baholash, mustaqil baholarni umumlashtirish), pedagogik tajriba-sinov va matematik usullardan (ma'lumotlarni statistik qayta ishlash, natijalarni grafik tasvirlash) foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarining malaka oshirish jarayoni uzluksizligini ta'minlash texnologiyasini amalga oshirishning pedagogik shart-sharoitlari direktorning ijtimoiy, kasbiy, shaxsiy faoliyatli, innovatsion yondashuvlariga ustuvorlik berish orqali professiogramma ishlab chiqish asosida takomillashtirilgan.

maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlari malakasini oshirishning tashkiliy - didaktik modeli o'z-o'zini mustaqil rivojlantirish, tizimlilik, kontekstligi, ta'lim natijalarini yangilash va ta'lim ehtiyojlarini rivojlantirish hamda ta'limning elektiv

tamoillari asosida maqsadli, mazmunli va natijaviy bloklarning uzviylikini malaka oshirish jarayonlarini uzluksiz ta'minlash orqali takomillashtirilgan.

maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorining uzluksiz malakasini oshirishni ta'minlash texnologiyasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlariga qo'yilgan ijtimoiy-huquqiy talablarni mustaqil rivojlantirishiga va o'zlashtirish darajalari bo'yicha monitoring qilish imkonini beradigan hamda malaka oshirish tizimidagi modul dasturini individuallashtirish asosida takomillashtirilgan;

maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorining boshqaruv faoliyati samaradorligini baholash texnologiyasi boshqaruv faoliyati mezonlari va samaradorlik ko'rsatkichlarini aniqlash hamda malaka oshirish mazmuni va kasbiy tajribani integratsiyalashga, moslanuvchanlik va motivatsiyaga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorining ehtiyojga asoslangan uzluksiz malaka oshirishini ta'minlash texnologiyalari va tamoyillari, mazmuni, tuzilmasi va darajasi aniqlashtirilgan;

maktabgacha ta'lim tashkiloti direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutida maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori toifasi uchun tanlov fanlar blokiga zamonaviy tizimni yaratish tamoyillari va yondashuvlariga asoslangan "Sifat menejmenti" o'quv moduli kiritilgan;

maktabgacha ta'lim tizimida rahbar xodimlar uchun qisqa muddatli maxsus kurs dasturi, modul, qo'llanma ishlab chiqilgan bo'lib, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida boshqarishning zamonaviy usullari, boshqarish sifati hamda samaradorligini oshirish orqali ta'lim jarayoni unumli faoliyatli yondashuv asosida tashkil etilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiya materiallari to'plami, OAK ro'yxatidagi maxsus jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, nashr etilgan qo'llanmalar va ular haqidagi taqrizlar, respondentlar bilan o'tkazilgan savol-javob, xulosa taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani hamda olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorining ehtiyojga asoslangan uzluksiz malaka oshirishini ta'minlash texnologiyalari va tamoyillari, mazmuni, tuzilmasi va qisqa kurslarda o'qitilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati malaka oshirish institutida maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori toifasi uchun tanlov fanlar blokiga zamonaviy tizimni yaratish tamoyillari va yondashuvlariga asoslangan "Sifat menejmenti" o'quv modulidan maxsus kurs dasturi, metodika, model, qo'llanma va maktabgacha ta'lim tashkilotlarida boshqarish sifati hamda samaradorligini oshirishda, ta'lim jarayonini unumli faoliyatli yondashuv asosida tashkil etilganligi bilan izohlanadi va malaka oshirish jarayonini rivojlanishida foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorining uzluksiz malakasini oshirishni ta'minlash texnologiyalari bo'yicha

ishlab chiqilgan nazariy va amaliy takliflar asosida quyidagi ilmiy-metodik natijalar olingan:

maktabgacha ta'lim tizimi uchun zahira rahbar xodimlarni tayyorlash bo'yicha onlayin shakldagi 24 soatlik qisqa muddatli o'quv kurslari uchun "Maktabgacha ta'limda sifat menejmenti", "Maktabgacha ta'lim tizimida ijro intizomi" nomli o'quv modullarining mazmuni takomillashtirilgan. (Maktabgacha ta'lim vazirligining 2021-yil 25-martdagi 03-02/2-796-sonli ma'lumotnomasi, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirining 2020-yil 19 oktabrdagi 160-son buyrug'i, MTTDMQTMOI rektorining 2020-yil 27-noyabrdagi 38-A son buyrug'i) Natijada, maktabgacha ta'lim tizimi uchun zahira rahbar xodimlarni tayyorlash bo'yicha onlayn shakldagi qisqa muddatli o'quv kurslarining dasturiy ta'minoti sifatida foydalanilgan;

direktorlarning bilim, ko'nikma va malakalarining dastlabki darajasini aniqlash orqali uzluksiz malaka oshirishni ta'minlash texnologiyalarini ehtiyojga asoslanganlik, variativlik, shaxsga yo'naltirilganlik va kasbiy professiogramмага yondashganlik asosida takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi va "Maktabgacha ta'lim tizimining rahbar xodimlarining malakasini oshirish" bo'yicha tashkil etilgan qisqa muddatli kurslarning o'quv reja va o'quv dasturlarini tuzishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirining 2019-yil 7-maydagi 74-son buyrug'i va MTTDMQTMOI rektorining 2019-yil 20-maydagi 48-O'J son buyrug'i). Natijada, maktabgacha ta'lim tizimi rahbar xodimlarining uzluksiz malaka oshirish motivasiyasini rivojlantirishga erishilgan;

uzluksiz malaka oshirish mazmunini ehtiyojga ko'ra shakllantirish, malaka oshirish jarayonini o'z-o'zini rivojlantirish tamoyili asosida ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan kelib chiqib baza modul dasturlari individuallashtirilgan hamda "Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari boshqaruv kadrlar zahirasi maqsadli o'qitish" uchun tashkil etilgan qisqa muddatli kurslarning o'quv uslubiy ta'minoti ishlab chiqilgan. (O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirining 2022-yil 8-avgustdagi 03-01/5-2158 sonli xati). Natijada, mazkur kurslarning samaradorligini oshirishga muvaffaq bo'lingan;

maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorining boshqaruv faoliyati samaradorligini baholashning takomillashtirilgan mezonlari va ko'satkichlari asosida malaka oshirish jarayonlarida tanlov fanlari uchun me'yoriy-metodik hujjatlarni ishlab chiqilgan hamda maktabgacha ta'lim direktorlarining malakasini oshirish kursi o'quv rejalarini tuzishda foydalanildi (O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirining 2020-yil 15-dekabr 202-son buyrug'i, 2021-yil 24-dekabrda 248-son buyrug'i va MTTDMQTMOI rektorining 2020-yil 27-noyabrdagi 38-A sonli buyrug'i). Natijada, maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertasiya mavzusi bo'yicha 19 ta ilmiy-uslubiy ishlar, jumladan, 1 ta o'quv qo'llanma, 2 ta uslubiy qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta

ilmiy maqola, shundan 3 tasi respublika va 6 tasi xorijiy jurnallarda maqola tarzida nashr qilingan.

**Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertasiya kirish, 3 bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, ilovalardan iborat bo'lib, asosiy matn 144 sahifani tashkil etadi.

## **DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI**

Dissertasiyaning kirish qismida ilmiy tadqiqot ishining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, obykti, predmeti aniqlangan; fan va texnologiyalarning ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan; ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy natijalari bayon qilingan; olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan; ilmiy va amaliy ahamiyati asoslab berilgan, natijalarning amaliyotga joriy etilganligi, e'lon qilinganligi, dissertasiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertasiyaning **“Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarining uzluksiz malakasini oshirishni ta'minlashning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida tadqiqot muammosiga doir ilmiy-nazariy adabiyotlarning qiyosiy tahlili asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining malakasini oshirishni ta'minlash texnologiyasini takomillashtirishning nazariy asoslari, maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining malakasini oshirishning pedagogik muammolari, maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining malakasini oshirishni tashkil etishga zamonaviy konseptual yondashuvlar, shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorini kasbiy rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari bayon etilgan.

Zamonaviy jamiyatda qabul qilingan ta'lim paradigmasi butun hayot davomida ta'lim oldiga shunday masalalarni qo'ydi, bular pedagogik hamjamiyatda “direktorlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi” kabi talqin etiladi va malaka oshirish tizimining roli muhim tarzda o'zgaradi. Uning asosiy vazifasi direktorlarning mustaqil rivojlanishi uchun sharoit yaratishdan iborat bo'lib qoladi. Direktorlarining malakasini uzluksiz oshirishni modernizatsiyasi qator uslubiy, tashkiliy-uslubiy, axboriy-didaktik va didaktik-uslubiy muammolarni yechish va ustida ishlashni talab etadi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorining ehtiyojga asoslangan uzluksiz malaka oshirish texnologiyasini mutlaqo yangi tamoyillar bilan takomillashtirishning ijtimoiy pedagogik muammolari quyidagilardan iborat:

an'anaviy malaka oshirishdan, mustaqil va ehtiyojga asoslangan zamonaviy malaka oshirish faoliyatiga;

nazariy ma'lumotlarni berishdan muhokama, debat, trening va amaliy mashg'ulotlardagi hamkorlikdagi ijodiy izlanishga;

tinglovchilarga chegaralangan tarzda yordam berishdan keng masshtabli ta'lim xizmatlariga;

bitta sertifikatdan, mutaxassis kompleks kasbiy portretini tashkil etuvchi ko'p sertifikatlariga o'tish.

Boshqaruv muhitining yuqori dinamikligi direktorlarning ehtiyojga asoslangan uzluksiz malaka oshirishi dolzarb ekanligini bildiradi.

Sotsiologik tadqiqotlar direktorning malaka oshirish muassasalarida har 4-5 yilda olgan bilimlari tez eskirishi, rivojlanib borayotgan davrda direktorlarning boshqaruv ehtiyojlari yangi ma'lumotlarni talab etishi haqida dalolat beradi.

Hozirgi kunda, maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorining malaka oshirish jarayoni davlat buyurtmasi asosida maktabgacha ta'lim standartlari, o'quv rejalari, dasturlari asosida tashkil etiladi. Shuningdek, maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan berilgan rejaga muvofiq malakasini oshirish qamrovi belgilab qo'yiladi.

Malaka oshirish tizimi – bu ijtimoiy talablar, ilmiy yutuqlar va amaliyot ehtiyojlarini birlashtirgan eng barqaror tuzilmadir. Malaka oshirish shunday ta'lim jarayoniki, uning doirasida ilgari olingan malakalarni saqlab qolish, kuchaytirish va kengaytirish, o'zgargan holatga moslashtirish, yangi, yanada yuqori lavozimda ishlash uchun yoki innovatsion ta'lim tashkiloti uchun zarur bo'lgan darajaga yetkazish kerak. Bundan kelib chiqadiki, ta'limning birinchi bosqichi tugaganidan keyingi ta'lim jarayonlari umumlashtirilgan holda malaka oshirish deb nomlanadi.

Malaka oshirish masalalari bo'yicha mavjud tadqiqotlarni o'rganish ushbu mavzu malaka oshirish nazariyasida yetarlicha ishlab chiqilmagan, degan xulosaga olib keldi. Malaka oshirish tizimi maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarining nazariy bilimlari va amaliy ko'nikmalarini takomillashtirish texnologiyalarini joriy etishning amaliy tajribasini tavsiflaydi.

Malaka oshirish jarayonining asosiy xususiyatlari quyidagilar:

boshqaruv nazariyasi, ta'limning mazmuni va falsafasi, menedjment psixologiyasini nazarda tutadigan kurslarning uzoq muddatli tabiati; bunday chuqurlashish direktorlarga mavjud bilimlarni tizimlashtirish yoki nazariy masaladagi bo'shliqlarni to'ldirishga imkon beradi, bu esa, mustaqil ta'lim olishga kuchli turtki bo'ladi;

kurslarda maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlari ishtiroki ta'lim tizimida teng huquqli rahbar sifatida his qilishlariga imkon beradi;

maktabgacha ta'lim tashkilotidagi pedagogik jarayonning o'ziga xos xususiyatlarini, maktabgacha ta'lim tashkilotini boshqarish nazariyasini bilish zarurligini hisobga olgan holda, ta'lim tashkilotlari direktorlari uchun umumiy malaka oshirish dasturi bilan bir qatorda, maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarishning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga oladigan maxsus kurs ishlab chiqildi.

Dissertasiyaning **“Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarining uzluksiz malakasini oshirishni ta'minlashning amaliy asoslari”** deb nomlangan ikkinchi bobida maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining uzluksiz malakasini oshirishni ta'minlash texnologiyalari zamonaviy yondashuvlarga asosan modellashtirilgan, bunda maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarlarining uzluksiz malakasini oshirishning takomillashtirilgan tashkiliy-didaktik modeli ko'rib chiqilgan va ko'rib chiqilgan tashkiliy-didaktik model asosida maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarining uzluksiz malakasini oshirishning takomillashtirilgan amaliy texnologiyasi ishlab chiqilgan.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorining uzluksiz malakasini oshirishni ta'minlash uchun biz, direktor uchun professiogramma tuzishni, uning faoliyati ideal modeli sifatida boshqarishning asosiy funksiyalari, maktabgacha ta'lim tashkilotini boshqarishning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ushbu funksiyalarni bajarish uchun zarur bo'lgan shaxsiy fazilatlarga, bilim va ko'nikmalarga bo'lgan talabni belgilaydigan dolzarb ehtiyoj deb hisoblaymiz.

Tadqiqot jarayonida ko'plab tajribali direktorlardan so'rovnomalar olindi va direktor mehnat faoliyatining xususiyatlarini aniqlash orqali professiogramma tuzildi.

Professiogramma direktorning malaka oshirish jarayonida olgan kasbiy mahoratini anglashda va kasbiy faoliyatini o'zi baholashida, o'z kasbiy intilishlarini yetarlicha munosib tushinishida katta rol o'ynaydi.

Professiogramma uch qismdan iborat. Birinchi bo'limda jamiyat tomonidan taqdim etilgan maktabgacha ta'lim tashkiloti direktoriga qo'yiladigan talablar ko'rsatilgan. Ikkinchi bo'limda maktabgacha ta'lim tashkilotining nizomida rahbarning rasmiy maqomini belgilovchi talablar mavjud. Professiogrammaning uchinchi bo'limida maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining faoliyat turlari ro'yxati va zarur bilim, ko'nikma, va shaxsiy fazilatlar ko'rsatiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining professiogrammasini tuzish uchun biz ularning tadqiqotchilari nuqtai nazaridan eng muhim funksiyalarini ajratamiz: axboriy-tahliliy, motivatsion-maqсадli, rejali-prognostik, tashkiliy-ijroiaviy, nazorat-diagnostikali, korreksion-regulyativ funksiyalari.

Direktor shaxsining kasbiy muhim fazilatlari, maktabgacha ta'lim tashkilotini boshqarish nazariyasi hamda ta'limni boshqarish nazariyasi, shuningdek, muvaffaqiyatli rahbarning shaxsini o'rganishga bag'ishlangan asarlarni tahlil qilish va umumlashtirish natijasida direktorlarning kasbiy muhim fazilatlari aniqlashtirilgan va jadval tuzilgan (1-rasm).

<b>Direktor shaxsiy xususiyatlarining umumiy guruhlar</b>	<b>Shaxsning aniq fazilatlari</b>
<b>Kasbiy-ishbilarmonlik fazilatlari</b>	Mehnatsevarlik, faollik, ishbilarmonlik, qat'iyatlilik, tashabbuskorlik, ijodkorlik qobiliyati, maqsad va vazifalarni belgilash qobiliyati, yangi narsalarni ko'rish qobiliyati, tezkorlik, iroda, qaror qabul qilish qobiliyati, natijalarni bashorat qilish, tahliliy qobiliyat, yuqori madaniyat
<b>Kasbiy-pedagogik fazilatlar</b>	Pedagogika, psixologiyani bilish, shaxsiy pedagogik mahorat

<b>Tashkiliy fazilatlar</b>	Talabchanlik, boshqaruv, o'ziga ishonch, tanqidiylik, qat'iyatlilik, tirishqoq, intizom, tashkilot ichki nazoratini, uslubiy va darsdan tashqari mashg'ulotlar, ota-onalar bilan uchrashuvlar tashkil qila olish, omma oldida nutq so'zlash mahoratiga, hujjatlarni rasmiylashtirish asoslariga ega bo'lish, xodimlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish, hissiy-irodali ta'sir o'tkazish qobiliyati, odamlarga tashabbus ko'rsatishlariga imkon berish
<b>Prognostik fazilatlar</b>	U yoki bu xodim, jamoa nimaga qodirligini aniqlay olish, istiqbolli, taktik va strategik maqsadlarni aniqlay olish
<b>Ijtimoiy-ruhiy fazilatlar</b>	Odamlarni ajrata olish qobiliyati, sezgirlik, xayrixohlik, adolat, odamlarda ijobiy narsalarni sezish qobiliyati, soddaligi, maqbullik, jamoada sotsiologik tahlil va shaxsni tadqiq qilish usullarini bilish, halollik, odoblilik, o'ziga va boshqalarga yuqori talabchanlik, inson psixologiyasini bilish va odamlarga individuallashtirgan yondashish
<b>Kommunikativ fazilatlar</b>	Odoblilik, notiqlik, odamlar bilan tezda til topishish qobiliyati, suhbatdoshni tinglash, odamlarga qiziqish, o'zini boshqalarning o'rni qo'ya olish, hamdardlik

### **1-rasm. Direktor shaxsining professional muhim xususiyatlari**


Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlari uchun malaka oshirishning takomillashtirilgan tashkiliy-didaktik modeli tuzilishda asoslagan tashkiliy va pedagogik sharoitlar, maqsadni shakllantirish va tashkiliy-pedagogik tarkibiy qismlarni ajratib olishga imkon beradi, biz tashkiliy, tarkibiy va faoliyat bloklarini funksional tarkibiy qismlar sifatida belgilaymiz.

Zamonaviy malaka oshirish tizimiga nafaqat malaka oshirish mazmunini va uning texnologiyalariga yangicha yondashuvlar bilan qurollash, balki direktorlar uchun maktabgacha ta'lim tizimidagi o'zgarishlarga munosabat tizimini ishlab chiqish uchun sharoit yaratish vazifasi qo'yilgan. Ushbu vazifani hal qilishda malaka oshirish jarayonida direktorlarining kasbiy rivojlanishi uchun sharoit yaratish kerak. Bizning pedagogik tajriba-sinov ishimiz yuqoridagi maqsadni amalga oshirishga qaratilgan edi.

Tadqiqot jarayonida ishlab chiqilgan model quyidagi funksiyalarni bajarishi aniqlandi:

Rivojlantiruvchi, tashxisli, prognostik, reflektiv, tartibga soluvchi-kompensatorli.


Tadqiqot jarayonida mavjud model biz tomonimizdan maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining boshqaruv faoliyatining xususiyatlariga moslashtirildi va ba'zi tarkibiy qismlar bilan to'ldirildi: mazmunli (variantiv kurs ishlab chiqilgan), faoliyatli va natijaviy (2-rasm).



**2-rasm. Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarlari malakasini oshirishning takomillashtirilgan tashkiliy-didaktik modeli**

Amaliy modelning birinchi tarkibiy qismi maqsaddir. Nazariy o'rganish natijasida biz nafaqat amaliy menejment faoliyati kasbiy rivojlanishga hissa qo'shishini, balki malaka oshirish tizimidagi ta'lim faoliyati bilim va ko'nikmalarni takomillashtirishga qaratilganligini, ya'ni bu direktor kasbining rivojlanishiga xizmat qilishini aniqladik.

Modelni tatbiq etish jarayonida biz quyidagi tamoyillarga tayandik: individuallashtirish tamoyili; maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlariga o'zining kasbiy rivojlanish subyekti sifatida munosabat tamoyili; o'qitishning kontekstliliigi tamoyili; ruhiy qulaylik tamoyili; ma'lumotlarning yetarliligi tamoyili; faollik tamoyili; o'quv jarayonining nisbiy to'liqligi tamoyili.



3-rasm. Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarlari uzluksiz malakasini oshirishning takomillashtirilgan texnologiyasi

Yuqorida ko‘rib chiqilgan tashkiliy-didaktik model asosida maktabgacha ta‘lim tashkiloti rahbarlari uzluksiz malakasini oshirishning takomillashtirilgan texnologiyasi ishlab chiqildi (3-rasm).

Malaka oshirish jarayonini tashkil etishda “Dastlabki baholash” amalga oshirildi. Ushbu baholash maktabgacha ta‘lim tashkiloti direktorining bilim, ko‘nikmalari va malakalarining dastlabki darajasini aniqlash va baza modul dasturini individuallashtirish maqsadida amalga oshirildi.

Dastlabki baholash 4 darajali testlar yordamida amalga oshirildi. Dastlabki baholash natijalariga ko‘ra, 56% dan yuqori ball to‘plagan tinglovchilar 28 soatlik modul dasturlari asosida o‘qitildi va bunda ehtiyojga asoslanganlik hisobga olindi. 56% dan kam ball to‘plagan tinglovchilar 144 soat o‘quv reja asosida o‘qitildi.

Mazkur o‘quv reja umumiy tayyorgarlik, umumkasbiy tayyorgarlik, mutaxassislik bo‘yicha tayyorgarlik va variativ qismdan iborat.

Variativ qism maktabgacha ta‘lim tashkilotining turlari, maqsad va vazifalari, maktabgacha ta‘lim va tarbiya to‘g‘risidagi qonun tizimiga oid asosiy me‘yoriy-huquqiy hujjatlar, maktabgacha ta‘lim tashkilotida ta‘lim tarbiyani tashkil etish, Maktabgacha ta‘limda boshqaruv axborot tizimi, Huquqiy kompetensiyani oshirish, Mehnat qonunchiligi va moliyaviy intizom, Maktabgacha ta‘limni strategik boshqarish, Rahbarlik kompetensiyalarni rivojlantirish, HR-menejment, Ta‘lim muassasa faoliyatini rejalashtirish va tashkil qilish, Ta‘lim sifatini baholash o‘quv modullaridan iborat edi.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari direktorlari uchun o‘quv mazmunini shakllantirishning hal qiluvchi sharti butun umr davomida o‘z-o‘ziga ta‘lim berish tamoyilini amalga oshirishdir.

Direktor ish jarayonida rollarni, funksiyalarni, pozitsiyalarni doimiy ravishda almashtirishga duch kelishi mumkinligini anglashi kerak, bu esa, muntazam kasbiy takomillashish va malaka oshirishni majburiy qiladi.

Malaka oshirish jarayonida direktor toifasi uchun o‘quv dasturlar tarkibini aniqlash uchun o‘zgaruvchan o‘quv dasturlarini tahlil qilish muhimdir. Ushbu tahlil bo‘yicha qisqa kurslarda o‘quv dasturini tanlash huquqini belgilovchi me‘yoriy hujjatlar ko‘rib chiqiladi, innovatsion dasturlarning tasnifi, dasturlarni tanlash bosqichlari, ta‘lim dasturlarini tahlil qilish algoritmi taklif etiladi.

Modelni amalga oshirish uchun mezon va ko‘rsatkichlarni belgilab, biz tizim rivojlanishining umumlashtirilgan ko‘rsatkichlari, faoliyatning muvaffaqiyati, tasniflash uchun asos sifatida mezonlarni tushunishga asoslandik.

Mezonlar asosida bir qator xususiyatlar aniqlanadi, ular asosida mezonli ko‘rsatkichlar aniqlanishi mumkin. Ko‘rsatkichlar pedagogik faoliyat natijalarini qayd etadi. Mutaxassislarning ta‘kidlashicha, har qanday faoliyatning sifatini faqat mezonlar va ko‘rsatkichlar erishilgan va rejalashtirilgan natijani taqqoslash uchun asos sifatida aniq belgilab qo‘yilgan taqdirdagina aniqlash mumkin.

Ta‘kidlab o‘tganimizdek, malaka oshirish tizimida maktabgacha ta‘lim tashkilotlari direktorlarining uzluksiz malakasini oshirish shaxsiy kasbiy o‘sishi uchun o‘z faolligi, anglashi orqali boshqaruvchilarning maqsadlarini o‘zgartirishni ko‘zda tutadi.

Shuningdek, rahbarlik faoliyatining asosiy tarkibiy qismlarining o‘zgarishi

orqali direktorlarning kasbiy rivojlanishi imkoniyatlarini taklif qildik.

Kasbiy o'zini-o'zi takomillashtirish faoliyatini belgilaydigan mezon shaxsning kasbiy rivojlanish nazariyasi, maktabgacha ta'lim tashkiloti boshqaruvi, boshqaruv ishini ilmiy tashkil etish; o'z kasbiy o'sishi uchun rejalar tuzish va amalga oshirish qobiliyati, boshqaruv faoliyatining barcha sohalarini bilish, o'z ish natijalarini tahlil qilish to'g'risidagi bilimlar ko'rsatkichlaridan iborat.

Tanlangan mezonlar besh balli tizim bo'yicha baholanadi: 5 ball – optimal daraja, 4 ball – yuqori daraja, 3 ball – qoniqarli daraja, 2 ball – maqbul daraja, 1 ball – hal qiluvchi daraja.

Ta'kidlab o'tganimizdek, malaka oshirish tizimida maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining malakasini oshirish shaxsiy kasbiy o'sish uchun o'z faolligi, anglashi orqali boshqaruvchilarning maqsadlarini o'zgartirishni ko'zda tutadi. Shuningdek, rahbarlik faoliyatida asosiy tarkibiy qismlarining o'zgarishi orqali maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarining kasbiy rivojlanishi imkoniyatlarini taklif qildik.

Dissertasiya ishining **“Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarining uzluksiz malakasini oshirishini ta'minlash bo'yicha tajriba-sinov ishlari va ularning natijalari”** deb nomlangan uchinchi bobida pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va o'tkazish metodikasi va pedagogik tajriba-sinov ishlari dinamikasi hamda natijalari tahlili bayon qilingan.

Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarlari uzluksiz malakasini oshirishning takomillashtirilgan texnologiyasini pedagogik tajriba-sinov jarayonida direktorlarning kasbiy rivojlanishini boshqarish vositasi sifatida samaradorligi aniqlandi.

№	MTT rahbarining boshqaruv faoliyati turlari	Ko'rsatkichlar (boshqaruv bo'yicha bilimlar)	Ko'rsatkichlar (boshqaruv ko'nikmalari)
1	Axboriy-tahliliy	MTTdagi pedagogik jarayon to'g'risidagi ma'lumotlar, ichki ma'lumotlarni to'plash tizimiga qo'yiladigan talablar o'quv yili natijalarini tahlil qilish nazariyasi va uslubiyati pedagogik tahlilning mohiyati, maqsadi, turlari, bosqichlari MTTda mashg'ulotlarni tahlil qilish nazariyasi va uslubiyati	barcha shakllangan oqimlar bo'yicha ma'lumotni o'z vaqtida to'plash, hisobga olish va saqlash pedagogik hodisalarni tahlil qilishda tizimli yondashuvni amalga oshirish maktabgacha ta'lim tashkilotining vazifalariga muvofiq o'rganish va tahlil qilish obyektlarini tanlash pedagogik jarayonni kuzatib borish va ularni to'plash uchun faol usullardan foydalanib ma'lumotlarni olish
2	Maqsadli	pedagogik jarayon ishtirokchilarining turtkilari va ehtiyojlarini shakllantirish usullari maqsadlarni aniqlash nazariyasi	maqsadlarni jamoaviy belgilashda tarbiyachilarni jalb qilish maktabgacha ta'lim tashkilotining strategik va taktik maqsadlarini aniqlash va ishlab chiqish, ular o'rtasida o'zaro bog'liqlikni o'rnatish

		maqsadni ishlab chiqish texnologiyasi	aniq, ravshan, erishish mumkin bo'lgan maqsadlarni qo'yish
3	Rejali-prognozli	kompleks-maqsadli dasturlardan foydalanishga asoslangan, umuman olganda, barcha bo'g'inlar faoliyatining aniq, real va o'zaro bog'liq dasturini, MTT ishini rejalashtirish texnologiyasi rejasini tuzish	umuman olganda, barcha bo'g'inlar faoliyatining aniq, real va o'zaro bog'liq dasturini, tarkibi va shakli jihatidan asosli, to'liq, aniq va real boshqaruv qarori hisoblangan rejalarni tuzish, kompleks-maqsadli dasturlarni ishlab chiqish orqali maktabgacha ta'lim tashkilotin faoliyatini prognoz qilish
		maktabgacha ta'lim tashkiloti ishini rejalashtirish uchun pedagogik jarayon ishtirokchilarini jalb qilish texnologiyasi	rejalashtirish jarayoniga o'z o'rinbosarlaringizni, tarbiyachilarni, ota-onalarni jalb qilish
		MTTni rivojlantirish dasturini ishlab chiqish texnologiyasi	maktabgacha ta'lim tashkilotini rivojlantirish dasturini ishlab chiqish
4	Tashkiliy-amaliy	demokratlashtirish va insonparvarlik asosida tashkiliy tuzilmani takomillashtirish yo'llari	maktabgacha ta'lim tashkilotining ehtiyojlariga muvofiq yangi tuzilmalarni yaratish
		xodimlarning lavozim vazifalari	tartibga solish talablari asosida tashkiliy munosabatlarni yaratish
		pedagogik jamoaning ijodiy salohiyatini rivojlantirishni boshqarish texnologiyasi	tarbiyachilarning kasbiy o'sishini rivojlantirishni rag'batlantirish maqsadida munosabatlarni tashkil etish
		ijodiy guruhlarni shakllantirish usullari	tarbiyachilarning ijodiy guruhlari va mikro uyushmalarini yaratish
		maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatining iqtisodiy jihatlari	moliyaviy-iqtisodiy faoliyatni tashkil etish
		MTT faoliyatini tashkil etishning huquqiy asoslari	tartibga solish talablari asosida tashkiliy munosabatlarni yaratish (yuqori turuvchi organlar va MTTda ishlab chiqilganlardan)
5	Nazorat-tashxislovchi	nazorat maqsadi, tarkibi, funksiyalari, usullari, tayyorlash va o'tkazish bosqichlari, boshqa funksiyalar bilan aloqasi	natijalarning yuqori sifatli o'sishini ta'minlaydigan nazorat tizimini yaratish
		MTT innovasion ta'lim dasturlari va ularning amalga oshirilishini baholash mezonlari	maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanish darajasi va sog'lig'ini tahlil qilish
		maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi natijalari monitoringi texnologiyasi	maktabgacha yoshdagi bolalar va maktabgacha tarbiya muasasalarining rivojlanish natijalarini kuzatish uchun monitoring tadbirlarini o'tkazish
		maktabgacha tarbiya tarbiyachisi faoliyatiga qo'yiladigan talablar	nazoratning professional xizmat sifatida asosiy yo'nalishini aniqlash
		tashxis o'tkazishning ilmiy asoslangan parametrlari	o'quv jarayonining holati va natijalari to'g'risida pedagogik tashhis qo'yish
6	Tuzatuvchi va tartibga soluvchi	tartibga solishning maqsadlari, mazmuni, usullari va shakllari	MTT faoliyatini muvofiqlashtirishni ta'minlash uchun tarkibiy aloqalarni ishlab chiqish
		rivojlanish rejimida	har xil turdagi maktabgacha ta'lim

		maktabgacha ta'lim tashkilotini boshqarish xususiyatlari	tashkilotlarining xususiyatlariga muvofiq tarbiyachilar va tibbiyot xodimlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning modellarini ishlab chiqish
7	O'zini-o'zi boshqarish	shaxsni kasbiy rivojlantirish nazariyasi	o'zining kasbiy o'sishi uchun rejalar tuzish va amalga oshirish
		maktab va maktabgacha ta'lim boshqaruvi nazariyasi	boshqaruv faoliyatining barcha yo'nalishlarini puxta bilish
		boshqaruv ishining ilmiy tashkil etish nazariyalari	o'z ishining natijalarini tahlil qilish, xulosalar chiqarish

**4-rasm. Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining boshqaruv faoliyati mezonlari va samaradorlik ko'rsatkichlari keltirilgan**

Dissertasiya tadqiqotlari maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti ta'lim jarayonining tabiiy sharoitida olib borildi. Taklif qilinayotgan yondashuvning samaradorligini tajriba-eksperimental tekshirish maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlari uchun malaka oshirish modeli sifatini monitoring qilishga asoslangan va bir necha eksperimental bosqichlarni o'z ichiga olgan.

Tayyorgarlik bosqichida diagnostik, prognostik va tashkiliy funksiyalar ustunlik qildi. Diagnostik funktsiyani amalga oshirish tadqiqot obyekti holatini aniqlashni o'z ichiga oladi: malaka oshirish tizimi sharoitida maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlari kasbiy rivojlanishining mohiyati va mazmuni to'g'risidagi zamonaviy g'oyalarni tahlil qilish, me'yoriy-huquqiy hujjatlar va materiallarni tahlil qilish, maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlari malakasini oshirishning nazariy asoslarini tahlil qilish, malaka oshirish tizimidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining ta'lim tajribasini umumlashtirish. O'tkazilgan nazariy asoslanish qarama-qarshiliklarni aniqlash va muammoni ifodalashga imkon berdi.

Shakllantiruvchi tajribani rejalashtirayotganda, maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining uzluksiz malakasini oshirish muammolarini ularning o'zaro munosabatlaridagi barcha tashkiliy va pedagogik shart-sharoitlarni amalga oshirgan holda samarali yechish mumkinligi taklif qilindi.

Shakllantiruvchi tajriba bosqichida quyidagi yo'nalishlar bo'yicha tadqiqotlar olib borildi: malaka oshirish jarayonida kasbiy bilimlar va kasbiy ko'nikmalardagi o'zgarishlar; ta'lim jarayonida kasbiy faoliyat samaradorligini mustaqil baholashning o'zgarishi; malaka oshirish institutidagi ta'lim jarayonidan qoniqish.

Tadqiqot shuni isbotladiki, "bilimlar yadrosi"ning o'sishi va rivojlanishi maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarini uzoq muddatli o'qitish jarayonida ro'y beradi. Ma'lumotlarning sezilarli o'sishi maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining boshqaruv faoliyatini quyidagi ko'rsatkichlarida namoyon bo'ldi: yil natijalarini tahlil qilish nazariyasi va metodologiyasi, ichki ma'lumotlarni to'plash tizimiga bo'lgan talablar, pedagogik tahlilning mohiyati, turlari, bosqichlari, maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini rejalashtirish texnologiyasi, maktabgacha ta'lim tashkilotini rivojlanish rejimida boshqarish xususiyatlari, maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanish natijalarini kuzatish texnologiyasi. Boshqaruv ko'nikmalarida quyidagi jiddiy o'zgarishlar ro'y berdi: maktabgacha ta'lim tashkilotlarining vazifalariga muvofiq tadqiqot va tahlil

